

BOZOR INFRATUZILMA VA UNING UNSURLARI

*Muallif: Davronov Akobir Baxtiyorovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti
Iqtisodiyot yo‘nalishi*

Asosiy qism: Bozor infratuzilma bu bozor iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyat yuritishda katta rol o‘ynaydi. Infratuzilma orqali bozor subyektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga o‘z faoliyatini mustaqil ravishda olib boradi. Lekin ular bir-biri bilan bog‘liq holda ishlaydi. Shu sababli infratuzilma ularni bog‘lab turuvchi vosita hisoblanadi. Bozor infratuzilmasi turli xil tashkilotlar va xizmatlardan tashkil topgan. Ular iqtisodiy jarayonlarni tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi. Masalan bank tizimi, sugurta tashkilotlari, birjalar, savdo tarmoqlari va boshqalar. Bank tizimi infratuzilmaning asosiy qismlaridan biridir. Banklar orqali pul mablag‘lari harakat qiladi. Ular kredit beradi, depozitlarni qabul qiladi va boshqa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi. Bank tizimi yaxshi rivojlangan bolsa iqtisodiyot ham barqaror rivojlanadi.

Sugurta tizimi ham katta ahamiyatga ega. U iqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Masalan turli korxonalar o‘z faoliyatini sugurta orqali himoya qiladi. Bu esa ularga ishonch bilan ishlash imkonini beradi. Birjalar bozor infratuzilmasining yana bir muhim qismi hisoblanadi. Birjalarda turli mahsulotlar va qimmatli qogozlar sotiladi. Narxlar talab va taklif asosida shakillanadi. Bu esa bozor mexanizmining ishlashini ta‘minlaydi.

Bozor infratuzilmasining yana bir muhim yo‘nalishi bu logistika va transport tizimidir. Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan istemolchiga yetkazish jarayoni aynan shu tizim orqali amalga oshiriladi. Agar transport tizimi yaxshi ishlamasa, mahsulotlar o‘z vaqtida yetib bormaydi. Logistika tizimi mahsulotlarni saqlash, tashish va taqsimlash bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu tizimning samarali ishlashi iqtisodiyot uchun juda muhim. Savdo tizimi ham infratuzilmaning muhim qismi hisoblanadi. Savdo orqali mahsulotlar iste‘molchilarga yetkaziladi. Hozirgi kunda savdo turlari ham ko‘payib bormoqda. Masalan ananaviy savdo bilan birga onlayn savdo ham rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari ham bozor infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan. Internet orqali tezkor malumot olish, to‘lovlarni amalga oshirish va savdo qilish mumkin. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni yanada tezlashtiradi. Bozor infratuzilmasining rivojlanishi davlat tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Davlat turli dasturlar orqali infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi. Masalan yangi yo‘llar qurish, bank tizimini rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Ba‘zi hududlarda infratuzilma yetarli

darajada rivojlanmagan. Bu esa iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor infratuzilmasining rivojlanishi kelajak uchun juda muhim hisoblanadi. Uni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Ayniqsa zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bu sohada katta ahamiyatga ega.

Shuningdek infratuzilma narxlarning shakillanishiga ham yordam beradi. Chunki bozor ishtirokchilari o'zaro aloqa orqali narxlarni belgilaydi. Bu esa iqtisodiyot uchun muhim hisoblanadi. Bozor infratuzilmasini bir necha turlarga bo'lish mumkin. Masalan ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma va bozor infratuzilmasi. Ularning har biri o'z vazifasiga ega. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga transport, energetika va aloqa tizimlari kiradi. Ijtimoiy infratuzilmaga esa ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalar kiradi. Bozor infratuzilmasi esa bevosita iqtisodiy jarayonlarga xizmat qiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham bozor infratuzilmasi rivojlanib bormoqda. Yangi banklar, savdo markazlari va logistika markazlari tashkil etilmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Masalan qishloq joylarda infratuzilma unchalik rivojlanmagan. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni cheklaydi. Kelajakda infratuzilmani yanada rivojlantirish zarur deb hisoblayman. Ayniqsa transport va axborot texnologiyalariga e'tibor berish kerak.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda bozor infratuzilmasi iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. U iqtisodiy jarayonlarni tashkil etishda katta rol o'ynaydi. Infratuzilma rivojlangan sari iqtisodiyot ham rivojlanadi. Shuning uchun har bir davlat bu sohaga e'tibor berishi kerak. Chunki infratuzilma iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Iqtisodiyot nazariyasi darsligi*
2. *Shodmonov Sh. – Iqtisodiyot asoslari*
3. *Samuelson – Economics*
4. *Internet manbalari*
5. *Statistika malumotlari*